

---

## Rossiyalik o'qituvchi tumanimizda!

Xalq ta'limi vazirligi xamda Rossiya maorif vazirligi bilan xamkorlikda amalga oshirilayotgan "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi maktablarida rus tili fanini va umumta'lim fanlarini rus tilida o'qitishning sifatini oshirish" ga qaratilgan ZO'R KLASS loyihasi doirasida Rossiya davlatining mutaxassis o'qituvchisi Aysulu Gayfulina Rishton tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabiga tashrif buyurdi.

Mutaxassis ish faoliyatini maktabda yaratilgan sharoitlar bilan tanishish o'qituvchilar va o'quvchilar bilan muloqot qilishdan boshladi.

Maktabda rus tili fani o'qitilishini sifatli tashkil etish va rus tilini o'rganishda jahon standartlari darajasida dars soatlarini o'tishdagi yangi metodlar bilan yaqindan tanishtirish yuzasidan o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish bo'yicha kelishib olindi.

Ikki davlat o'rtasidagi ta'limni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan loyihalar O'zbekiston ta'limining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

2022-09-08 17:20:23